

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15004637>

O'ZBEKISTON- MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG'RIKENGLIK YURTI

Rustamova Gulsanam Boxodirjon qizi

Andijon davlat Pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada millatlararo totuvlik va bag'rikenglik o'zbek millatining madaniyati va qadriyatiga singdirilgan boshqa millat vakillariga nisbatan yuksak hurmat va izzati, shu orqali xalqaro maydonda yuksak maqomga ega bo'lgani haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: millatlararo, etnik, totuvlik, tolerantlik, tinchliksevar, fidokor, YUNESKO, deklaratsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы высокого уважения и почета к представителям других национальностей, которые заложены в культуре и ценностях узбекской нации и тем самым снискали ей высокий статус на международной арене.

Ключевые слова: межнациональный, этнический, согласие, толерантность, миролюбивый, бескорыстный, ЮНЕСКО, декларация.

Abstract: The article deals with the issues of high respect and honor for representatives of other nationalities, which are embedded in the culture and values of the Uzbek nation and thus have earned it a high status in the international arena.

Keywords: interethnic, ethnic, consent, tolerance, peaceful, selfless, UNESCO, declaration.

O‘zbekistonning boyliklari ko‘p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz – jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikdir. Shu jumladan YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995-yil 16-noyabrda o‘tkazilgan 28-sessiyasida qabul qilingan “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi” dunyoda tinchlik va totuvlikni ta’minlash, inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini kafolatlash, teng huquqlilik hamda o‘zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur hujjat qabul qilingan sana — 16-noyabr butun dunyoda Xalqaro bag‘rikenglik kuni sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 136 dan ortiq millat va elat vakillari, 140 ga yaqin milliy-madaniy markazlar faoliyati, ularning o‘z ona tili, millati tarixi, qadriyatlari va madaniyatini o‘rganish borasida amalga oshirayotgan keng ko‘lamli ishlar bunga misol bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1993-yili bo‘lib o‘tgan 48- hamda 1995-yil oktyabrida o‘tkazilgan 50-sessiyalarida so‘zlagan nutqi bunga yorqin misol bo‘ladi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Markaziy Osiyo – yadroviy quroldan xoli zona” g‘oyasining tashabbuskori sifatida maydonga chiqdi. Islom Karimov qo‘shti “Afg‘onistonda ko‘p yillardan beri yuz berayotgan murakkab vaziyatni faqat siyosiy yo‘l bilan hal qilish haqidagi g‘oyasi hamon dolzarbligicha turibdi”.¹

O‘zbekiston – aynan tinchliksevar siyosati bilan ham jahon hamjamiatida alohida obro‘ga ega davlat sanaladi.

Millatlararo yurt deya e’tirof etishning yana asosiy sabablaridan biri O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham qat’iy belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqoraolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.”²

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni.O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida \ rasmiy nashr\ O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. -Toshkent: Adolat, 2017.

Darhaqiqat, oliv bosh qomusimizda ham huquqiy erkinliklar barchaga bir xil, uning dinidan, irqidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qonun oldida barobardir deb belgilanganligida ham millatlararo bag‘rikenglik va totuvlikdan dalolat berib turibdi. Milliy qadriyatlar tolerantlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Tolerantlik — o‘zligini anglagan millat vakillarining boshqa millat vakillari tomonidan kansitilishiga yo‘l qo‘ymaslik, ular bilan tinch, farovon hayot kechirishidir. Tolerantlik tuyg‘usi insonning xulq-atvori, odob-axloqi, siyosiy-ma’naviy pokligi, o‘z xalqi va milliy merosi, boyligi hamda milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini belgilab beradi. Bu xususiyatlar esa, har bir insonda bag‘rikenglik, baynalmilallik tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlarini asrab-avaylash va rivojlantirish, ularni yagona maqsad – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lida yanada jipslashtirish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Boshqa mamlakatlarda ko‘p millatlar va xalqlar o‘rtasida ancha dolzarb muammolar yuzaga kelganligi hechkimga sir emas. Bunining oqibatida ko‘plab urush va nizolar kelib chiqganliklari ham aniq. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonda millatlararo bag‘rikenglik va totuvlik juda ham yaxshi yo‘lga qo‘yliganligidan dalolat beradi. Xalqimizda shunday ibratli so‘zlar buning tasdig‘idir. “Bir kun janjal chiqgan uydan qirq kun baraka ketadi” deydi xalqimiz. Yurt tinchligi va farovonligi unda yashaydigan xalqlarning bir biriga bo‘lga hurmati va ahilli oly saodat hisoblanadi. Shuning uchun ham millatlararo totuvlik g‘oyasi milliy mafkuramizning asosiy g‘oyalaridan biridir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: «Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo‘shgan. Turli millat vakillariga hurmat, Ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag‘rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam»¹.

¹.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993-yili bo‘lib o‘tgan 48, hamda 1995-yil oktyabrida o‘tkazilgan 50-sessiyalarida so‘zlagan nutqi.

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 18-moddasi. Toshkent 2018. 9-bet

Bugungi kunda bag‘rikenglik insoniyat tomonidan erishilgan eng katta yutuqlardan biridir. Bundan keyingi taraqqiyot uchun ham u muhim omillardan bo‘lib qolaveradi. O‘zbekistonda turli millat va elat vakillari o‘rtasida mustahkam do‘stlik, bag‘rikenglik muhiti ta’minlangan. Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik, ayni paytda O‘zbekistonning barcha sohadagi islohotlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi yo‘nalishi aynan diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minalash masalasiga bag‘ishlangani mamlakat Prezidenti va hukumatining xalqaro hujjatlarda belgilangan umuminsoniy vazifalarga qaratayotgani yuksak e’tiborining namunasi hamdir.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilish tashabbusi bilan chiqqani jahon hamjamiyatining diqqatini tortgan edi. Mazkur hujjat barchaning ta’lim olish huquqini ta’minalash, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashish, eng muhimi, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minalashga qaratilgani bilan e’tiborga molikdir.

Darhaqiqat, O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik ishlari ham juda yaxshi olib borilmoqda. Bunga birgina misol mamlakatimizda har bir dinga e’tiqod qiluvchilar uchun shart sharoitlar yaratilganligidadir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: «Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug‘imiz-bu umumiylar xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir»¹

Bir mamlakatda istiqomat qilayotgan turli millatlar va elatlar orasidagi hamjihatlik, ahillik hamisha o‘sha yurt uchun muhim hayotiy omil hisoblanadi. Zero, XXI asrga kelib, ba’zi davlatlarda milliy-etnik munosabatlarda ziddiyatlarning yuzaga kelishi og‘ir oqibatlarga olib kelayotganini hammamiz yaqqol ko‘rib turibmiz.

³ I.A.Karimov Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. „Fidokor“ gazetasi, 2000 yil, 8 iyun. 4-bet

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.,: O‘zbekiston, 1999. 9-bet.

Masalan O‘zbekistonda vijdon erkinligi, har kimning xohlagan diniga e’tiqod qilishi yoki qilmaslik huquqi to‘liq ta’minlangan va qonuniy kafolatlangan. Mazkur holat, ko‘p millatli, ko‘p konfessiyali bo‘lgan mamlakatda o‘ziga xos yondashuv bo‘lib, shu ma’noda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda O‘zbekiston o‘ziga xos boy tajriba ortirganligini ta’kidlash o‘rinlidir. Buning birgina isboti hozirda O‘zbekistonda 16 ta konfessiyaga mansub 2 ming 244 ta diniy tashkilotlar rasman faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘z navbatida, mazkur konfessiyalarning o‘z faoliyatini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun hamma imkoniyatlar mavjud. Davlat ta’lim muassasalarida o‘qitish 7 tilda olib borilmoqda. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o‘z ko‘rsatuvarlarini 12 tilda namoyish etmoqda, 10 dan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Mamlakatimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirishda 137 ta milliy madaniy markaz, 34 ta do’stlik jamiyatlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotganligi fikrimizning tasdig‘idir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik hukm surgan yurtda ahillik, inoqlik, totuvlik va tinchlik albatta umrboqiy bo‘ladi deb aytishimiz mumkin. Bundan tashqari millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik xalqimizning bir-biriga bo‘lgan ishonchi va hamjihatliligi ham oshadi deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993-yili bo‘lib o‘tgan 48, hamda 1995-yil oktyabrida o‘tkazilgan 50-sessiyalarida so‘zlagan nutqi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 18-moddasi. Toshkent 2018.
3. I.A.Karimov Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. „Fidokor“ gazetasi, 2000 yil, 8 iyun.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.,: O‘zbekiston, 1999.
5. <https://yuz.uz/uz/>
6. <https://insonhuquqlari.uz/>